

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI



Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirining 2024-yil
“27 dekabr” dagi
485 - sonli buyrug'i bilan
tasdiqlangan.

“Davolash ishi” (Terapiya)
yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarini
qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursining o'quv dasturi

Toshkent – 2024

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRALARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

*Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv dasturi Oliy, o'rta maxsus va
professional ta'lif yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini
Muvoqiqlashtiruychi kengashining
2024-yil 24.12. - sonli bayonnomasi bilan ma'qillangan.*

- Tuzuvchilar:** "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari" moduli: f.f.d., prof. M.M.Qahhorova, yu.f.b., PhD F.B.Maxmudov.
"Oliy ta'lifning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish" moduli: yu.f.n., prof. V.Topildiyev, yu.f.d., prof. B.I.Ismailov.
"Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar" moduli: t.f.d., prof. D.Irgasheva, p.f.b., PhD Sh.Adashboyev, o'qituvchi A.Doliyev.
"Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish" moduli: i.f.d., prof. R.Nurimbetov p.f.b., PhD N.Xaqnazarova.
"Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish" moduli: p.f.d., prof. N.A.Muslimov, p.f.b., PhD I.Eshmamatov, R.Dj.Ishmukhammadov, A.Turayev, A.Abduraxmonov.
"Ta'lif sisfatini ta'minlashda baholash metodikalari" moduli: p.f.d., prof. N.A.Muslimov, p.f.d., prof. J.Tolipova, p.f.b., PhD M.Innazarov.
"Terapiya yo'nalishining tendensiyalari, dolzab muammolar va uning yechimlari" moduli: t.f.d., dots. G.S.Agzamova
- Taqrizchilar:** t.f.d., professor A.A.Xamrayev – Toshkent tibbiyot akademiyasi 2 son ichki kasalliklar va endokrinologiya kafedrasi mudiri
- Xorijiy ekspert:** t.f.d., professor V.K.Jarov – Rossiya Federatsiyasining Akademik E.A.Vagner nomidagi Prem davlat tibbiyot universiteti "2-sonli kasbiy diagnostika fakultet terapiyasi" kafedrasi mudiri

*O'quv dasturi Toshkent tibbiyot akademiyasi Kengashining qarori bilan tasdiqqa taysiya
qilingan (2024-yil 24.12. - yaniqoz dagi - 6. sonli bayonnomasi).*

Kirish

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzlusiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4996-son qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-iyuldagagi 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslarini yoritib berish, oliy ta’limning

normativ-huquqiy asoslari bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, ilmiy-innovatsion faoliyat darajasini oshirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalaridan samarali foydalanish, terapiya yo‘nalishining tendensiyalari, dolzarb muammolar va uning yechimlari topish bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv dasturi quyidagi modullar mazmunini o‘z ichiga qamrab oladi:

- 1.1. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari.
- 1.2. Oliy ta’limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish.
- 1.3. Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar.
- 1.4. Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish.
- 1.5. Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish.
- 1.6. Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari.
- 1.7. Terapiya yo‘nalishining tendensiyalari, dolzarb muammolar va uning yechimlari.

Malakaviy attestatsiya

Kursning maqsadi va vazifalari

Oliy ta’lim muasasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarini o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

“Davolash ishi” (Terapiya) yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;
- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarning o‘zlashtirilishini ta’minalash;
- o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta’minalash borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtirish;

“Davolash ishi” (Terapiya) yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minalash.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv modullari bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- “Yangi O‘zbekiston” konsepsiysi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini;
- O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” hamda “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida” Qonunlarini;
- O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmini;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilishni;
- “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish dasturlari va ularning amaliyotga tadbiq etish istiqbollarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalarini;
- jamiyatning iqtisodiy negizlarini;
- “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni;
- Oliy ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmunini;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim tizimiga oid farmonlari, qarorlarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta’lim tizimiga tegishli qarorlarini;
- Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishga oid buyruqlarini;
- Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o‘quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablarni, o‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini;
- oliy ta’lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbazarliklarga qarshi kurashish vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillarini;
 - ta’lim jarayonini raqamli transformatsiyasini;
 - raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini;
 - raqamli ta’lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasini;
 - mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini;
 - raqamli ta’lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablarni;
 - meta texnologiyalar tushunchasi, avzalliklari va kamchiliklarini;
 - zamonaviy ta’lim tizimida sun’iy intellekt (AI) ning ahamiyatini;
 - ta’limda sun’iy intellektningdan foydalanish istiqbollari va xavflarini;

- bilimlarni sinash va baholashning aqlii tizimlarini;
- jahonda oliv ta’lim rivojlanish tendensiyalari: umumiy trendlar va strategik yo‘nalishlarni;
 - zamonaviy ta’limning global trendlarini;
 - inson kapitalining iqtisodiy o‘sishning asosiy omili sifatida rivojlanishida ta’limning yoshdagи ahamiyatini;
 - oliv ta’limning zamonaviy integratsiyasi: global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingini;
 - xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarini;
 - zamonaviy universitet jamiyatning faol, ko‘pqirrali va samarali faoliyat yurituvchi instituti sifatidagi uchta yirik vazifalarini;
 - universitetlarning zamonaviy modellarini;
 - zamonaviy kelajak universitetlarning beshta asosiy modellarini;
 - tadbirdorlik universiteti faoliyatining muhim yo‘nalishlarini;
 - pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini;
 - innovatsion ta’lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llarini;
 - kasbiy kompetensiyalarning mazmun va mohiyatini;
 - kasbiy kompetensiyalar va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini;
 - pedagogik texnikaning asosiy komponentlarini;
 - pedagogik texnikani shakllantirish yo‘llarini;
 - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion, akmeologik, aksilogik, kreativ, refleksiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashuvlar va xalqaro tajribalar hamda ularning kasbiy kometensiyalarni rivojlantirishga ta’sirini;
 - kasbiy kompetetnsiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini;
 - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda uchraydigan to‘siqlarni yechishda, to‘g‘ri harakatlardan qilishda pedagogning kompetentlik va kreativlik darajasi, pedagogik kvalimetriyasini;
 - talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning nazariyasini;
 - ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillarni;
 - kredit-modul tizimida talabalarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o‘ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalarini;
 - baholash turlari, tamoyillari va mezonlarini;
 - zamonaviy diagnostika, davolash, tibbiy reabilitatsiya va terapevtik kasalliklarning oldini olish usullarini;
 - turli yoshdagи kasalliklarning xozirgi zamondagi kechishi, dunyo bo‘ylab tarqalishi, kasalliklarning yangi tasniflari, diagnostikasini;
 - dunyo xaritasida infektsion kasalliklarning ko‘rinishini;

- terapevtik kasalliklar tashxislash laboratoriya diagnostikasining zamonaviy usullarini, shu jumladan, sitogenetik va molekulyar-tsitologenetik texnologiyalarni;
- “Oilaviy amaliyotida” ko’p uchraydigan asosiy klinik sindromlarni;
- “Oilaviy malakaviy tavsifnomasi”da ko’rsatilgan ichki kasalliklar tashxis mezonlari va xavf omillarini;
- kamdan kam uchraydigan revmatik kasalliklar takroriy polixondrit, Behchet kasalligi, Stil kasalligi, Felti sindromlarini ***bilishi*** kerak.

Tinglovchi:

- “O’zbekiston-2030” strategiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini yoritib berish;
- O’zbekistonning xalqaro maydonagi siyosiy va iqtisodiy aloqalarini tahlil etish va baholash;
- yangi O’zbekistonning ma’naviy va madaniy tiklanish dasturlari asoslarini o’zlashtirish;
- O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta’lim tizimiga tegishli qarorlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- xorijiy tajribalar asosida malaka talablari, o’quv rejalarini va fan dasturlarini takomillashtirish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribaning ahamiyatini yoritib berish;
- multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik mayeriallar yaratish va bulut xizmatlarida saqlash;
- masofiviy ta’lim platformalari uchun video kontent yaratish;
- Internetda mualliflik huquqlarini himoya qilish usullaridan foydalanish;
- raqamli ta’lim resurslari sifatini baholash;
- pedagogik jarayonda sun’iy intellektning rolini tahlil qilish va ahamiyatini ochib berish;
- ta’lim sohasida sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash;
- OTMlarni reyting bo‘yicha ranjirlash;
- jahon universitetlari reytingini tahlil etish va baholash;
- universitetlarni mustaqil baholash yondashuvlarini aniqlashtirish;
- tadbirdorlik universitetiga o’tish uchun zarur bo‘ladigan o’zgarishlarni aniqlash;
- Universitet 1.0 dan Universitet 3.0 modeliga o’tish borasidagi muammolarni aniqlash;
- zamonaviy tadbirdorlik universiteti modeli tamoyillarini o’zlashtirish;
- pedagoglarning kreativ potensiali tushunchasi va mohiyatini ochib berish;
- pedagoglar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini qo’llash;
- o‘qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning axamiyatini yoritib berish;

- tinglovchilar diqqatini o‘ziga tortish usullaridan foydalanish;
- kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish yo‘llarini tahlil etish;
- kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘siqlar, qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish;
 - talabalarining o‘quv auditoriyadagi faoliyatini baholash;
 - talabalarining kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, o‘quv-malakaviy amaliyot (mehnat faoliyati)ini nazorat qilish;
 - baholashning miqdor va sifat tahlilini amalga oshirish;
 - terapiya sohasida erishilayotgan so‘nggi yutuqlar natijalarini amaliyotda qo’llash;
 - turli yoshdagi kasalliklarning xozirgi zamondagi kechishi, dunyo bo’ylab tarqalishi, kasalliklarning yangi tasniflari, diagnostikasini tahlil etish;
 - noinfektsion kasalliklar (qandli diabet, gipertoniya kasalligi, YuIK va b.) respublikamizda va xorijda tarqalishi, oldin olish chora tadbirlari bilan tanishish;
 - kasalliklar tendentsiyasini o’z vaqtida aniqlashni ta’minlaydigan tahlillarni olib borish ***ko‘nikmalariga*** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o‘zgarishlarni tahlil qilish va ularning zarurligini muhokama etish;
 - O‘zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini ochib berish;
 - mamlakatimizning raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasini takomillashtirishga oid chora tadbirlar bilan ishlash;
 - davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslarini o‘zlashtirish;
 - Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid buyruqlari, Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlarining va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;
 - o‘quv yuklamalarni rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;
 - meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini tahlil etish;
 - korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni majburiy baholash, korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro‘yhatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish tartibidan samarali foydalanish;
 - an’anaviy va raqamli ta’limda pedagogik dizaynning xususiyatlarini ochib berish;
 - onlayn mashg‘ulotlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish;

- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini o‘zlashtirish;
- pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish;
- raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish;
- meta texnologiyalarni ta’limga samarali integratsiya qilish yo‘llaridan foydalanish;
- ta’limdagi sun’iy intellektning xususiyatlarini muhokama qilish;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarining ahamiyatini ochib berish;
- OTM reytingiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil etish;
- universitetlarning zamonaviy modellarini o‘rganish;
- OTM bitiruvchilarini va xodimlari tomonidan texnologiyalar transferiga litsenziyalar oluvchi startaplarni shakllantirish va yaratish;
- professor-o‘qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini tahlil etish;
- innovatsion ta’lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;
- pedagog kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hususiyatlarini tahlil etish va baholash;
 - ijtimoiy va kasbiy tajribaga asoslangan intellektual mashqlarni ishlab chiqish;
 - o‘quv jarayoni ishtirokchilarini bir-birlari bilan tanishtirish, samimiyo do‘stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, tinglovchilarning ijodiy imkoniyati va shaxsiy sifatlarini ochish, tinglovchilarning hamkorlikda ishlashlari uchun qulay sharoitni vujudga keltirish;
 - tinglovchilarning kasbiy kompetensiyalarini o‘rganish, tanishish;
 - kasbiy kompetetnsiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini ochib berish;
 - ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, professor-o‘qituvchilarning salohiyati va o‘quv-metodik ta’minot)ni tahlil etish va baholash;
 - talabalarning o‘quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholash;
 - talabalarning o‘quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholashda o‘quv topshiriqlari (reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasidan samarali foydalanish;
 - aholi orasida nogironlikni kamaytirish muammolarini, aholi orasida tibbiy ko‘riklar tashkil qilish va xavf guruhlarini aniqlash;
 - terapevtik kasalliklar diagnostikasida laboratoriya zamonaviy innovatsion usullarini qo‘llash;
 - “Oilaviy amaliyotida” ko‘p uchraydigan asosiy klinik sindromlarni tahlil qilish;
 - respublikada va har bir mintaqada kasalliklar tendentsiyasini o‘z vaqtida aniqlashni ta’minlaydigan tahliliy va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish **malakalariga** ega bo‘lishi zarur.

Tinglovchi:

- 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi mohiyati bilan tanishish;
- “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish dasturlarini amaliyotga tadbiq etish;
- yoshlar ma’naviyatini oshirish bo‘yicha davlat dasturlari yuzasidan muhokama tashkil etish va ulardan samarali foydalanish;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- Davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlar asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish amal qilish va ularni ijrosini ta’minlash;
- oliy ta’lim tizimida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ylganlik holatlarini aniqlash, manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan sohalarni oldini olish va bartaraf etish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish, fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini nazoratga olinishini ta’minlash (nomzodlarni tekshirish tartibi), ushbu sohada qo‘llanishi lozim bo‘lgan xorij tajribasidan foydalanish;
- raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini o‘quv jarayoniga faol tatbiq etilishini tashkil etish;
- raqamli ta’lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasi asoslarini o‘zlashtirish;
- raqamli ta’lim muhitida pedagogik dizaynga oid innovatsiyalarni amaliyotga tadbiq etish;
- meta texnologiyalarni tahlil qilish va ularning ta’limdagi ta’sirini ochib berish;
- sun’iy intellektning asosiy xususiyatlarini asoslab berish;
- universitetlarning xalqaro va milliy reytingini baholash;
- OTMlarda talim, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarni tijorathashtirish yo‘llarini tahlil etish va amaliyotga tadbiq etish;
- «Amaliyotchi professorlar» (PoP, Professor of Practice) modelini qo‘llash;
- professor-o‘qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini yoritib berish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini amaliyotga tadbiq etish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik trayektoriyalarini ishlab chiqish;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘sirlarning xilma-xilligi va o‘ziga xos xususiyatlari, sabablarini amaliy tomonlarini yoritish, ularni yechish bosqichlarini guruh bilan bиргаликда aniqlash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning elektron monitoring tizimini yuritish;
- talabalarning ta’limiy (o‘quv predmetlari), tarbiyaviy (ma’naviy-ma’rifiy

tadbirlar) va rivojlantiruvchi (ilmiy-tadqiqot ishi, start-up loyihalar) maqsadlarini baholash;

- zamonaviy diagnostika, davolash, tibbiy reabilitatsiya va terapevtik kasalliklarning oldini olish usullarini joriy yetish;
- xavf guruhiga kiruvchi bemorlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, kasalliklarni erta asoratlarini oldini olish;
- terapiyada kasalliklarning erta diagnostikasi uchun muxim bo'lgan usullarni qo'llash;
- terapevtik kasalliklarni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktikasi muammolari va uning yechimlarini topish *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

Kurs hajmi

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi 288 soatni tashkil etadi. Bunda o'quv dasturining 144 soat hajmi ishdan ajralmagan mustaqil malaka oshirish shakllari asosida, 144 soati to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) malaka oshirish shaklida ishdan ajragan holda amalga oshiriladi. Malaka oshirishning bevosita shaklida bir haftadagi o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi 36 soatni tashkil etadi. Attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan kurs tinglovchilariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi PF-4732-son Farmoni 3-ilovasi bilan tasdiqlangan davlat namunasidagi malaka attestati beriladi.

"DAVOLASH ISHI" (TERAPIYA) YO'NALISHI BO'YICHA QAYTA TAYYORLASH VA MALAKA OSHIRISH KURSINING O'QUV MODULLARINING MAZMUNI

1.1. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari.

"Yangi O'zbekiston" konsepsiysi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillari. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayoni va orttirilgan tajriba. "O'zbekiston-2030" strategiyasining ahamiyati. Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirish. Aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish. Aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish va xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish. Mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash.

Huquqiy davlat va qonun ustuvorligi. Siyosiy va huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvi tizimining takomillashtirilishi. Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish. O'zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o'zgarishlar va ularning zaruriyati. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari. Jamiyatning iqtisodiy negizlari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiida

ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalari. Davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslari.

2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi. "Yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish dasturlari va ularning amaliyotga tadbiq etish istiqbollari.

Ijtimoiy rivojlanish va inson kapitali, yangi avlod kadrlarini tayyorlash. Ayollar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash, gender tenglik va yoshlar siyosati. Yoshlarning mamlakat rivojidagi roli. Yoshlar ma'naviyatini oshirish bo'yicha davlat dasturlari.

Milliy ma'naviyat va qadriyatlar, yangi O'zbekistonning ma'naviy va madaniy tiklanish dasturlari. Global jarayonlar va O'zbekistonning o'rni, O'zbekistonning xalqaro maydonidagi siyosiy va iqtisodiy aloqalari. "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish. Mamlakatimizning raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasini takomillashtirishga oid chora tadbirlar.

1.2. Oliy ta'limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish.

Oliy ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlarining umumiyligi tavsiyi. Oliy ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ - huquqiy xujjatlardan tushunchasi. Normativ-huquqiy xujjatlarning turlari. Normativ huquqiy xujjatlarga qo'yiladigan talablar. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. Ta'lim jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish. Ta'lim to'g'risidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi va uning mohiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim tizimiga oid farmonlari va qarorlari. Oliy ta'lim sohasiga oid qonunosti hujjatlari va ularning turlari. Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar. Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlari. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga oid buyruqlari. Davlat ta'lim standartlari, ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablar. O'quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullari. OTMlarning lokal xujjatlari (Ustav, Ichki tartib qoidalar).

Meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlari. Ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalarini va fan dasturlarini ishlab chiqish. Xorijiy tajribalar asosida Malaka talablari, o'quv rejalarini va fan dasturlarini takomillashtirish.

Oliy ta'lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbazarliklarga qarshi kurashish vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillari.

Oliy ta’lim tizimida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilganlik holatlarining ko‘rinishi, manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan sohalar, ularni oldini olish va bartaraf etish uchun qo‘llanilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlarning mazmun-mohiyati, fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini nazoratga olinishini ta’minlash (nomzodlarni tekshirish tartibi), ushbu sohada qo‘llanishi lozim bo‘lgan xorij tajribasi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribaning ahamiyati, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni majburiy baholash, korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro‘yhatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalgamoshirish tartibi.

1.3. Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar.

